

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17342045>

## MINTAQALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINING TA'SIRINI BAHOLASH

*Ismoilov Alisher Jobir o'g'li*

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[presentutor@gmail.com](mailto:presentutor@gmail.com), tel: +998939142595 Orcid ID: 0000-0003-1583-9338

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi va uning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarga ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Mintaqalarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining dinamikasi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda tarmoqlararo tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy tengsizliklarning asosiy determinantlari sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tahlilda mintaqalararo ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, aholi daromadlari, bandlik va infratuzilma imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ularning ijtimoiy farovonlik darajalariga ta'siri ochib beriladi. Metodologik yondashuv sifatida hududlar bo'yicha ishlab chiqarish samaradorligini baholash, fazoviy iqtisodiy modellardan foydalanish va nomutanosiblik ko'rsatkichlari (Gini, Theil, Hoover) orqali o'chash mexanizmlari qo'llaniladi. Natijalar qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy tengsizliklarni kuchaytiruvchi yoki kamaytiruvchi omil bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu asosda maqolada mintaqaviy siyosat choralarini optimallashtirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, hamda hududiy infratuzilma imkoniyatlarini muvozanatlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik, hududlar, ishlab chiqarish samaradorligi, fazoviy iqtisodiyot, tengsizlik ko'rsatkichlari, Gini indeksi, Theil indeksi, Hoover koeffitsienti, hududiy siyosat, innovatsion texnologiyalar, barqaror o'sish.

### KIRISH

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi bugungi kunda nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishda ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, agrar sektor rivoji mintaqaviy iqtisodiy tizimlarda barqaror o'sish, bandlik darajasini oshirish va aholi farovonligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir [1]. FAONing 2023-yilda e'lon qilingan "The State of Food and Agriculture" hisobotida qayd etilishicha, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga qaratilgan innovatsion investitsiyalar hududlararo daromad tafovutini o'rtacha 15–20 foizgacha qisqartirish imkonini beradi [2].

Jahon banki ham o'zining "World Development Report 2022" nashrida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududiy tengsizliklarni kamaytirishdagi rolini alohida ta'kidlab, infratuzilma rivoji va bozor integratsiyasining yetarli emasligi qishloq hududlarida iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanishiga olib kelayotganini qayd etadi [3]. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi sektorida yaratiladigan ish o'rnlari global darajada bandlikning qariyb 27

foizini tashkil etadi va bu ko'rsatkich rivojlanayotgan davlatlarda yanada yuqori [4].

O'zbekiston sharoitida ham qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini ta'minlab, iqtisodiyotning ustuvor sohalaridan biri hisoblanadi [5]. Shu bilan birga, hududlar o'rtasida hosildorlik, qayta ishslash quvvatlari va infratuzilma imkoniyatlari bo'yicha sezilarli tafovutlar kuzatilmoxda. Masalan, 2022-yilgi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ayrim viloyatlarda hosildorlik darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan 1,5 baravar yuqori bo'lsa-da, qayta ishslash sanoati salohiyatining yetarli emasligi sababli ishlab chiqarishning katta qismi xom-ashyo shaklida eksport qilinmoqda [6].

Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda "Qishloq xo'jaligini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"da hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish, qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan [7]. Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ilgari surilgan "2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari"ning 2- va 10-maqsadlari ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va tengsizliklarni qisqartirish orqali qishloq xo'jaligi rivojini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan [8].

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida mamlakat agrar siyosatini tizimli asosda modernizatsiya qilish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan fundamental dasturiy hujjat sifatida e'tirof etiladi [9]. Strategiya doirasida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish ulushini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, xususan suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq joylarda bandlik va daromadlarni barqaror o'sishini ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi hududiy tafovutlarni yumshatish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda barqaror o'sishga erishishda muhim determinant bo'lib, ushbu mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot mintaqalarda qishloq xo'jaligi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarga ta'sirini baholashga qaratilgan bo'lib, xalqaro tajriba va milliy strategik hujjatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda olib boriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarga ta'sirini ilmiy tahlil qilish so'nggi o'n yillikda ko'plab xalqaro va milliy tadqiqotlarda asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Avvalo, iqtisodiy tengsizliklarning nazariy asoslari Simon Kuznetsning iqtisodiy o'sish va tengsizlik o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi konsepsiysi bilan izohlanadi. Kuznets egri chizig'iga ko'ra, dastlab iqtisodiy o'sish tengsizliklarni kuchaytiradi, biroq rivojlanish bosqichlari ortgani sari ularni kamaytirish imkonini beradi [10]. Ushbu nazariya keyinchalik mintaqaviy rivojlanish masalalarida ham qo'llanilib, qishloq xo'jaligi sektorining

iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi orqali hududlar o'rtasidagi tafovutlarni yumshatish mexanizmi sifatida izohlangan.

Barro va Sala-i-Martin (2004) o'z asarlarida iqtisodiy o'sish va hududiy tafovutlarni matematik modellashtirish orqali konvergensiya jarayonini tadqiq qilib, agrar sektorning resurslarga boy hududlarda tezroq rivojlanishini, ammo past infratuzilma darajasiga ega mintaqalarda teskari natija berishini ko'rsatadi [11]. Shuningdek, Deininger va Byerlee (2012) qishloq xo'jaligi yer resurslaridan foydalanishning samaradorligi va investitsiyaviy omillarini baholashda agrar islohotlar iqtisodiy tenglikni ta'minlashdagi o'rni yuqori ekanligini ta'kidlaydi [12].

Xalqaro tashkilotlarning hisobotlari ham ushbu mavzu doirasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. FAO (2020) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarda qishloq xo'jaligi tarmoqlarining modernizatsiyasi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bir qatorda mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirish imkoniyatlarini ham kuchaytirishi ta'kidlanadi [13]. Jahon bankining "World Development Report 2020" nashrida esa agrar sektorning bandlik va aholi daromadlari shakllanishiga ta'siri chuqur o'rganilib, qishloq xo'jaligi bozorlarini diversifikatsiya qilish orqali hududiy tengsizliklarni yumshatish mexanizmlari ishlab chiqilgan [14].

Mahalliy tadqiqotlar orasida Umurzakov (2021) tomonidan olib borilgan izlanishlarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududlar bo'yicha tafovutlari, ularning aholi turmush darajasiga bevosita ta'siri statistik modellar orqali baholangan [15]. Shuningdek, Mullabayev (2019) innovatsiya va raqamli texnologiyalarni agrar sohada keng qo'llash mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni yumshatishdagi hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ilmiy asoslab bergen [16].

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi ham qishloq xo'jaligi rivojlanishining hududiy nomutanosibliklarga ta'sirini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Masalan, Turkiyada qishloq xo'jaligi subsidiyalari hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda muhim rol o'ynaganligi haqidagi tadqiqotlarda qayd etiladi [17]. Polsha misoldida esa Yevropa Ittifoqi agrar siyosatining hududiy barqarorlikka ijobiy ta'siri aniqlangan [18].

Shuningdek, Janubiy Koreya tajribasi ham qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali hududiy iqtisodiy tenglikni oshirish mexanizmlarini ko'rsatib beradi. Choe (2017) o'z izlanishlarida davlat investitsiyalarini qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganda hududiy konvergensiya tezlashishini asoslagan [19]. O'zbekiston bo'yicha G'ulomov va Shermuhamedov (2022) esa hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda qishloq xo'jaligi tarmoqlari resurslarining oqilona boshqarilishi alohida omil ekanligini ko'rsatgan [20].

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish yoki kuchaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro tajribalar, nazariy modellash va mahalliy tadqiqotlar birgalikda shuni isbotlaydiki, agrar sektordagi islohotlar, innovatsiyalar va resurslardan samarali foydalanish hududiy nomutanosibliklarni yumshatishda asosiy determinantlar hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarga ta’sirini baholash uchun kompleks metodologik yondashuv ishlab chiqildi. Nazariy asos sifatida iqtisodiy o‘sish va tengsizlik nazariyalari — xususan Kuznets egri chizig‘i, neoklassik konvergensiya modeli hamda fazoviy iqtisodiyot konsepsiyalari qo‘llanildi. Empirik tahlil jarayonida O‘zbekiston mintaqalari kesimida 2013–2023 yillarga oid statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdonligi, bandlik, aholi real daromadlari va infratuzilma rivoji ko‘rsatkichlari qamrab olindi. Hududiy nomutanosibliklarni aniqlash uchun Gini koeffitsienti, Theil indeksi va Hoover koeffitsienti kabi indeksslash usullari tatbiq qilindi. Bundan tashqari, iqtisodiy jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni empirik tekshirishda panel ma’lumotlar asosida oddiy eng kichik kvadratlar (OLS), fiksirlangan effektlar (FE) hamda tasodifiy effektlar (RE) modellaridan foydalanildi. Mazkur yondashuv bir tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining iqtisodiy samaradorlikka qo‘shgan hissasini aniqlashga, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy tenglik va hududiy barqarorlikka ta’sirini baholashga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda Namangan viloyati va uning tumanlari misolida 2015–2024 yillar davrida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi va ularning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarga ta’siri chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining o‘zgarishi, ularning hududiy tafovutlarga hamda iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlariga bevosita ta’siri empirik asosda o‘rganiladi. Bunda mintaqalar bo‘yicha ishlab chiqarish samaradorligi va bandlik dinamikasi tahlil qilinib, ularning ijtimoiy farovonlik va hududiy tengsizlikka ta’sirini aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda Gini, Theil, Atkinson va Hoover indekslari qo‘llanilib, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi bilan daromadlar taqsimoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi. Ushbu indekslar yordamida hududiy nomutanosiblik darajasi aniqlanib, qishloq xo‘jaligi rivojlanishining ijtimoiy tenglikni mustahkamlash yoki aksincha, tafovutlarni kuchaytirishdagi roli ochib beriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida samarali resurs boshqaruvi nafaqat iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, balki hududiy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlikni ham mustahkamlaydi.

Namangan viloyatida 2015–2024 yillar oralig‘ida tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonining umumiyligi tendensiyasi kuzatilib, ularning samaradorlik darajasidagi yillik o‘zgarishlar tizimli ravishda hisobga olingan va statistik ko‘rinishda ifodalangan (1-jadval).

1-jadval.

### Namangan viloyatida tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi

Yil	YHM o‘sishi (%)	Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi (%)	Mehnat resurslari bandligi (%)	Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi (%)
2015	6.5	72.1	62.5	65.3

2016	6.8	73.4	63.2	66.1
2017	7.1	74.8	64.0	68.0
2018	6.9	75.3	64.9	68.8
2019	7.4	76.5	65.8	70.2
2020	5.1	72.6	62.7	65.0
2021	6.2	74.0	63.8	67.3
2022	6.8	75.2	65.4	68.5
2023	7.0	76.9	66.1	69.7
2024	7.2	78.1	67.4	71.0

Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Namangan viloyatida 2015–2024 yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi resurslardan foydalanish samaradorligi va yalpi hududiy mahsulot o'sishi orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, YaIMning o'sish sur'ati 2015-yildagi 6,5 % dan 2024-yilda 7,2 % gacha yetgan. Shu davrda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi 72,1 % dan 78,1 % gacha oshib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida innovatsion texnologiyalar, suv tejovchi usullar va yangi ekin navlarining joriy etilishi natijasida samaradorlik yildan-yilga barqaror ko'tarilgan. Xuddi shuningdek, moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi 65,3% dan 71,0% gacha ko'tarilib, investitsion faollikning ortishi, kreditlash mexanizmlarining kengayishi va qishloq xo'jaligi korxonalarida qayta ishlash jarayonlarining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Mehnat resurslari bandligida ham ijobiy dinamikaga guvoh bo'lish mumkin: 2015-yilda 62,5 % bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilda 67,4% gacha yetgan. Bu esa qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy mehnat bozorida barqaror ish o'rnlari yaratishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Biroq 2020-yilda pandemiya ta'sirida barcha ko'rsatkichlar keskin pasayib, tabiiy resurslardan foydalanish 72,6%, moliyaviy samaradorlik esa 65% darajagacha qisqargan. Shundan keyingi yillarda davlat siyosati, subsidiyalar va mahalliy dasturlar yordamida ko'rsatkichlar tiklanib, 2024-yilga kelib resurslardan foydalanish samaradorligi eng yuqori darajaga yetdi. Bu jarayon qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini kuchayib borayotganini va nomutanosibliklarni kamaytirishda muhim determinant sifatida xizmat qilayotganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Namangan viloyatida 2015–2024-yillar oralig'ida iqtisodiy xavfsizlikni baholash maqsadida Gini, Theil, Atkinson va Hoover indekslari hisoblab chiqilgan. Mazkur ko'rsatkichlar daromad taqsimotidagi tengsizlik hamda resurslardan foydalanishdagi hududiy tafovutlarning o'zgarishini yoritib beradi. Shu orqali qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatgani aniqlanadi va iqtisodiy xavfsizlik darajasidagi dinamik o'zgarishlar empirik asosda aks ettiriladi (2-jadval).

## 2-jadval.

### Namangan viloyatinining mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari

Yil	Gini koeffitsienti	Theil indeksi	Atkinson indeksi	Hoover indeksi
2015	0.298	0.155	0.121	0.102
2016	0.295	0.153	0.119	0.100

2017	0.302	0.159	0.124	0.108
2018	0.309	0.163	0.127	0.111
2019	0.312	0.168	0.129	0.114
2020	0.328	0.179	0.134	0.123
2021	0.321	0.173	0.131	0.118
2022	0.315	0.169	0.128	0.113
2023	0.310	0.165	0.126	0.109
2024	0.305	0.161	0.123	0.106

Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Namangan viloyatida 2015–2024 yillar davomida iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, daromad taqsimoti va resurslardan foydalanishdagi hududiy tafovutlar turlicha yo'nalishda rivojlangan. 2015-yilda Gini koeffitsiyenti 0,298 darajasida bo'lib, daromad tengsizligi nisbatan past darajada qayd etilgan. Biroq 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 0,312 ga oshgan, bu esa hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning kuchayganini anglatadi. Shu bilan birga, Theil va Atkinson indekslari ham 2015–2019 yillar oralig'ida ortib borib, iqtisodiy resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklarning kengayib borishini ilmiy asosda tasdiqlagan. Hoover indeksi ham 0,102 dan 0,114 gacha ko'tarilib, resurslardan foydalanish va daromad o'rtasidagi hududiy tafovutlar sezilarli bo'lgani qayd etilgan.

2020-yil pandemiyasi davrida barcha indikatorlar eng yuqori nuqtaga yetgan: Gini 0,328, Theil 0,179, Atkinson 0,134 va Hoover 0,123 darajaga ko'tarilib, bu mintaqada daromadlar taqsimotida keskin nomutanosiblik yuzaga kelganini ko'rsatadi. Ammo 2021-yildan boshlab davlat siyosatida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari, infratuzilma investitsiyalari va qishloq xo'jaligida samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hisobiga ko'rsatkichlarda pasayish kuzatilgan. 2024-yilga kelib Gini 0,305, Hoover esa 0,106 gacha tushgan, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarning qisman yumshaganini anglatadi.

### 3-jadval

#### Namangan viloyatining ayrim tumanlarida resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari

Tumanlar	2015	2017	2019	2021	2022	2024	O'zgarish 2015–2024 (%)	O'rtacha yillik o'sish (%)
Namangan sh.	68.5	71.2	73.4	70.1	72.6	75.8	+7.3	0.8
Chust	66.8	69.1	71.5	68.9	70.3	73.0	+6.2	0.7
Kosonsoy	67.4	70.0	72.6	69.5	71.2	74.1	+6.7	0.7
Pop	65.7	68.0	70.8	67.4	69.1	72.0	+6.3	0.7
Uychi	66.0	68.5	71.0	68.1	70.5	73.5	+7.5	0.8
To'raqo'rg'on	67.1	69.8	72.1	69.0	71.6	74.3	+7.2	0.8
Norin	64.5	67.2	69.5	66.2	68.1	71.0	+6.5	0.7
Uchqo'rg'on	65.2	68.1	70.4	67.0	69.4	72.2	+7.0	0.8

Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi


Namangan viloyati tumanlari bo'yicha 2015–2024 yillar davomida resurslardan foydalanish samaradorligi dinamikasi hududiy tafovutlarning mavjudligini ko'rsatmoqda. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, Namangan shahri doimiy ravishda yuqori natijalarni qayd etib, 2015-yildagi 68,5 foizdan 2024-yilda 75,8 foizgacha o'sishga

erishgan. Kosonsoy va To‘raqo‘rg‘on tumanlari ham yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi, bu esa ushbu hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi, klaster tizimining kengayishi va investitsiyaviy faoliyatning nisbatan yuqoriligini anglatadi. Aksincha, Norin tumanida 2015–2024 yillar davomida eng past samaradorlik qayd etilgan bo‘lib, bu yerda resurslardan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun qo‘srimcha mexanizmlar zarurligini ko‘rsatadi.

Pandemiya yillari (2020–2021) tumanlar samaradorligiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, Pop tumanida 2019-yildagi 70,8 foizlik samaradorlik 2021-yilda 67,4 foizgacha pasaygan. Biroq, 2022-yildan boshlab ijobiy o‘sish tiklangan va barcha tumanlarda samaradorlik ko‘rsatkichlari 71–76 foiz oralig‘ida shakllangan. Bu esa davlat tomonidan amalga oshirilgan qo‘llab-quvvatlash dasturlari, kredit va subsidiyalar hamda qishloq xo‘jaligida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda samarali bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bois, tumanlararo tafovutlarni kamaytirish uchun resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytirish va hududiy siyosatni differensiallashtirish zaruriy omil hisoblanadi.

#### 4-jadval.

#### Namangan viloyatining iqtisodiy xavfsizlik va resurslardan foydalanish o‘rtasidagi bog’liqligi



Manba: Muallif hisob-kitoblari

Namangan viloyatida resurslardan foydalanish va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasidagi korrelyatsion bog’liqlik natijalari shuni ko‘rsatadiki, tabiiy resurslar samaradorligi bilan Gini koeffitsiyenti o‘rtasida  $-0,62$  darajadagi salbiy korrelyatsiya mavjud. Bu holat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ortgan sari daromadlar taqsimotida tengsizlik kamayishini anglatadi. Mehnat resurslari bandligi bilan Theil indeksining  $-0,58$  ko‘rsatkichdagi salbiy bog’liqligi esa, mehnat bozorida bandlik yuqori bo‘lganda hududiy tafovutlar pasayishini tasdiqlaydi. Shuningdek, moliyaviy resurslardan foydalanish va Hoover indeksi o‘rtasida  $-0,65$  darajadagi kuchli salbiy bog’liqlik qayd etilgan bo‘lib, bu moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishi hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi.

Eng e’tiborlisi shundaki, umumi resurs samaradorligi bilan iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasida  $+0,71$  darajali kuchli ijobiy bog’liqlik mavjud. Bu esa resurslardan kompleks va samarali foydalanish iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning asosiy determinantlaridan biri ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslarni

integratsiyalashgan boshqaruv orqali qo'llash hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirib, barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

## XULOSA

Mazkur tadqiqot doirasida Namangan viloyati misolida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatgan ta'siri, resurslardan foydalanish samaradorligi va iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yillikda viloyatda resurslardan foydalanish darajasi sezilarli oshgan bo'lsa-da, tumanlar kesimida samaradorlikning bir xilda taqsimlanmaganligi hududiy tafovutlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki hududiy tengsizliklarni kamaytiruvchi yoki kuchaytiruvchi determinant sifatida ham baholanishi lozim. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi 2015–2024 yillarda izchil o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Masalan, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi 72,1 foizdan 78,1 foizga, moliyaviy resurslardan foydalanish esa 65,3 foizdan 71 foizga ko'tarildi. Ammo ayrim tumanlarda, xususan Norin va Popda ko'rsatkichlar pastligicha qolmoqda. Bu esa hududiy resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklarni kamaytirish uchun manzilli siyosat yuritishni talab qiladi. Shu jumladan, infratuzilmani kengaytirish, agrotexnika xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va investitsion oqimlarni rag'batlantirish zarur.

Ikkinchidan, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari orqali o'lchangan tengsizlik ko'rsatkichlari 2015–2019 yillarda ortib, 2020-yilda pandemiya oqibatida keskin yomonlashgan (masalan, Gini 0,328 gacha ko'tarilgan). Keyingi yillarda davlat qo'llab-quvvatlov dasturlari va iqtisodiy islohotlar natijasida ko'rsatkichlar tiklangan bo'lsa-da, hududiy daromad tafovutlari hamon dolzarbdir. Shu bois ijtimoiy himoya mexanizmlarini kengaytirish, bandlik siyosatini diversifikatsiya qilish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash klasterlarini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda.

Uchinchidan, korrelyatsion tahlillar resurslardan foydalanish samaradorligi va iqtisodiy xavfsizlik o'rtaida yuqori bog'liqlikni ko'rsatdi. Tabiiy resurslardan foydalanish bilan Gini koeffitsiyenti o'rtaida -0,62, moliyaviy resurslardan foydalanish bilan Hoover indeksi o'rtaida -0,65 darajadagi salbiy korrelyatsiya aniqlangan bo'lib, bu resurslardan oqilona foydalanish daromad tengsizligini kamaytirishini tasdiqlaydi. Eng muhim natija – umumiylar resurs samaradorligi va iqtisodiy xavfsizlik o'rtaida +0,71 darajadagi kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligi bo'lib, bu resurslardan kompleks boshqaruv orqali foydalanish hududiy barqarorlikni ta'minlashning strategik determinantidir.

To'rtinchidan, tumanlar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligining notekis taqsimlanishi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda.

Namangan shahri, Kosonsoy va To‘raqo‘rg‘on tumanlari yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa, Norin va Pop tumanlari past ko‘rsatkichlarga ega hududlar sifatida ajralib chiqdi. Bu esa hududiy siyosatda differential yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda resurslardan samarali foydalanish uchun qo‘srimcha investitsiya dasturlarini ishlab chiqish, kichik biznesni rag‘batlantirish hamda ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish zarur.

Beshinchidan, barqaror rivojlanishni ta’minalash maqsadida hududiy darajada iqtisodiy xavfsizlik indeksini joriy etish va muntazam monitoring qilish zarur. Bunday indekslar yordamida hududlar kesimida nomutanosibliklar o‘lchanadi, real vaqt rejimida kuzatiladi va shu asosda manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, xalqaro tajribaga tayanib (OECD, FAO, UNDP tavsiyalari asosida) resurslardan samarali foydalanishni ta’minalaydigan institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi Namangan viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi muhim omil bo‘lish bilan birga, hududiy tafovutlarni kamaytirishda ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois kelgusida resurslardan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish va hududiy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha tizimli siyosat yuritish talab etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD (2021). Regional Development and Agriculture: Policy Report. Paris: OECD Publishing.
2. FAO (2023). The State of Food and Agriculture 2023. Rome: Food and Agriculture Organization.
3. World Bank (2022). World Development Report 2022: Regional Inequalities and Development. Washington, DC: World Bank.
4. ILO (2021). World Employment and Social Outlook: Trends. Geneva: International Labour Organization.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining Qishloq xo‘jaligi rivojlanishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar to’plami.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisobotlari to’plami.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF–81-sон Farmoni.
8. United Nations (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: UN.United Nations Development Programme (UNDP). (2022). Human Development Report 2022: Uncertain Times, Unsettled Lives. New York: UNDP.
9. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantrishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan*

*strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni*

10. Kuznets, S. (1955). Economic Growth and Income Inequality. *The American Economic Review*, 45(1), 1–28.
11. Barro, R., & Sala-i-Martin, X. (2004). *Economic Growth* (2nd ed.). MIT Press.
12. Deininger, K., & Byerlee, D. (2012). Rising Global Interest in Farmland: Can it Yield Sustainable and Equitable Benefits? Washington, DC: World Bank.
13. FAO. (2020). *The State of Food and Agriculture 2020*. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
14. World Bank. (2020). *World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. Washington, DC: World Bank.
15. Umurzakov, D. X. (2021). O‘zbekiston hududiy rivojlanishida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining o‘rni. Toshkent: Fan nashriyoti.
16. Mullabayev, B. (2019). The role of innovation and digital technologies in ensuring sustainable economic development. *International Journal of Economics and Management*, 7(3), 45–56.
17. Yeldan, E. (2015). *Agricultural Subsidies and Regional Disparities in Turkey*. Ankara University Press.
18. Wilkin, J. (2018). *Agriculture and Rural Development in Poland within the EU Framework*. Warsaw: Scholar Publishing.
19. Choe, C. (2017). *Infrastructure Investment and Regional Convergence: Evidence from South Korea*. Seoul National University Press.
20. G‘ulomov, S., & Shermuhamedov, H. (2022). Hududiy iqtisodiy xavfsizlik va qishloq xo‘jaligi resurslarini boshqarish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.